

Kimyo.

1. Moddaniy kimyoviy xossalari namoyon qiluvchi eng kichik zarracha ... deyiladi
A) atom B) molekula C) modda D) jism
2. H_2SO_4 dagi 2 va 4 raqamlari qanday ataladi?
A) indeks B) ko'effitsiyent
C) valentlik D) oksidlanish daraja
3. 11 g uglerod (IV)-oksidning normal sharoitdagi miqdorini (mol) toping.
A) 1 B) 0,5 C) 0,25 D) 0,125
4. Kimyo fani nimani o'rganadi?
A) moddalarning tuzilishini
B) moddalarning bir biriga aylanishini
C) kimyoviy qonuniyatlarni
D) moddalarning xossalari tuzilishlarini va bir biriga aylanishlarini
5. Kislorodning vodorodga nisbatan zichligini aniqlang
A) 64 B) 32 C) 16 D) 8
6. 200 g 10 % li tuz eritmasi shu tuzning 300 g 20 % li eritmasi bilan aralashtirilganda hosil bo'lgan yangi eritmadagi tuzning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 12 B) 14 C) 16 D) 18
7. Elektron formulasi ... $3d^74s^2$ bo'lgan atomning tartib raqami nechga teng?
A) 17 B) 23 C) 25 D) 27
8. Berilgan tartibda atom radiusi qanday o'zgarishini aniqlang. (elementlarning tartib raqami berilgan)
 $16 \xrightarrow{1} 17 \xrightarrow{2} 9 \xrightarrow{3} 8$
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi
A) 1b; 2b; 3a B) 1a; 2b; 3b
C) 1b; 2a; 3a D) 1a; 2a; 3b
9. Vodorod peroksid molekulasida nechta σ -bog' bo'ladi?
A) 4 B) 3 C) 5 D) 2
10. Qanday qattiq moddalarda, ular suyuqlanma holatiga o'tganda, elektr tokini o'tkazish xususiyati paydo bo'ladi?
1) kaliy nitrat; 2) germaniy; 3) natriy xlorid; 4) natriy gidroksid; 5) oltingugurt; 6) kaliy gidrid; 7) natriy oksid.
A) 1,2,3,4,6 B) 1,2,3,5,7 C) 1,3,4,5,6 D) 1,3,4,6,7
11. Ionli bog'lanish qaysi elementlar birikmasida yaqqolroq bo'ladi?
A) 2-davr, III va IV guruh elementlarida
B) 3-davr, IV va V guruh elementlarida
C) 5-davr, VII va VIII guruh elementlarida
D) 2-davr, I va VII guruh elementlarida
12. Bir molekula kaliy dixromat va ikki molekula alyuminiy sulfat dissotsilanganda hosil bo'ladigan ionlarning umumiy sonini toping.
A) 4 B) 8 C) 10 D) 13 E) 18

13. Alkadiyen gomologik qatorining umumiy formulasini (1,2,3,4) va kislorodda oksidlanish reaksiyasi tenglamasidagi kislorodning ko'effitsiyentni (a, b, c, d) toping. (reaksiya mahsuloti sifatida CO_2 va H_2O hosil bo'ladi deb hisoblang.)

- 1) C_nH_{2n+2} ; 2) C_nH_{2n-2} ; 3) C_nH_{2n} ; 4) C_nH_{2n+1}
a) 0; b) $1,5n+0,5$; c) $1,5n-0,5$; d) 1
A) 4; c B) 2; d C) 2; c D) 2; a

14. Alkenga xlorid kislotaga ta'sir ettirilganda 9,25 g monoxloralkan, bromid kislotaga ta'sir ettirilganda esa 13,7 g monobromalkan hosil bo'ladi. Alken tarkibida nechta sp^3 - gibril orbital bor ?

- A) 16 B) 8 C) 4 D) 12

15. 0,1 mol kislotani neytrallash uchun 250 ml 0,8 molyarli natriy gidroksid sarflansa, kislotaning formulasini aniqlang.

- A) C_2H_3COOH B) $HOOC_2COOH$
C) $CH_2(OH)COOH$ D) $HCOOH$